

BIRINCHI SINFLARGA INGLIZ TILINI SHE'RLAR VA O'YINLAR O'RGATISH ORQALI LINGVISTIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Xolmatova Hamrobi Shermurod qizi

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili fakulteti Maktabgacha va
boshlang'ich ta'limda xorijiy til ingliz tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola birinchi sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'rganishda she'rlar va o'yinlar orqali lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirishning samarali usullarini tahlil qiladi. She'rlar va o'yinlar til o'rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilish bilan birga, eslab qolish, talaffuz, fonetik anglash, grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Maqolada amaliy misollar va tadqiqotlar asosida bu metodlarning afzalliklari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: she'rlar, o'yinlar, lingvistik ko'nikmalar, talaffuz.

Аннотация: Данная статья анализирует эффективные методы развития лингвистических навыков у первоклассников при изучении английского языка через стихи и игры. Стихи и игры делают процесс изучения языка увлекательным и интерактивным, способствуя развитию памяти, произношения, фонетического восприятия, усвоения грамматических структур и творческого мышления. В статье представлены практические примеры и исследования, демонстрирующие преимущества этих методов.

Ключевые слова: стихи, игры, лингвистические навыки, произношение.

Annotation, This article analyzes effective methods for developing linguistic skills in first-grade students learning English through poems and games. Poems and games make the language learning process engaging and interactive, fostering memory, pronunciation, phonetic awareness, grammar acquisition, and creative thinking. The article presents practical examples and research demonstrating the advantages of these methods.

Keywords: poem, games, linguistic skills, pronunciation

Kirish: Ingliz tilini o`rganish jarayonida birinchi sinf o`quvchilari uchun she`rlar va o`yinlar orqali til ko`nikmalarini rivojlantirish samarali usullardan biridir. Bu metodlar o`quvchilarning tilga bo`lgan qiziqishini oshiradi, ularni dar jarayonlarida faol ishtirok etishga undaydi va til o`rganish jarayonini qiziqarli qiladi.

She`rlar orqali til ko`nikmalarini rivojlantirish

She`rlar o`quvchilarning talaffuzini yaxshilash, fonetik anglashni rivojlantirish va yangi so`zlarni o`zlashtirishda muhim rol o`ynaydi. Masalan, qisqa va ritmik she`rlar orqali o`quvchilar yangi so`zlarni eslab qolishlari osonlashadi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, she`rlar yordamida o`rgatilgan so`zlar o`quvchilarning yodida uzoqroq saqlanishi tadqiqotlarda isbotlangan.

Quyida she`rlar orqali ingliz tilini o`rgatishga misollar berilgan va ular tahlil etilgan.

Fonetik ko`nikmalar (Talaffuz va tovushlarni eshitish):

“Baa, Baa, Black Sheep”

Baa, baa, black sheep,

Have you any wool?

Yes sir, yes sir,

Three bags full.

Ushbu she`r bolalarda “b” tovushini takrorlash orqali fonetik eshituvni kuchaytiradi. “Baa, baa, black...” kabi so`zlar orqalik kichkintoylar “b” tovushini talaffuz qilishni o`rganadilar. Shu bilan birga, she`rning ohangi va ritmi eslab qolishni ham osonlashtiradi.

Leksik ko`nikmalar (So`z boyligini oshirish):

“Ten Little Fingers”

I have ten little fingers

And ten little toes,

Two little ears

And one little nose...

Bu she`r orqali tana a`zolari nomlari: “fingers”, “toes”, “ears”, “nose” kabi so`zlar o`rgatiladi. She`r harakatlar bilan uyg`unlashtirilsa, bolalar yangi so`zlarni tezroq eslab qoladi va amaliy mashg`ulotga aylantiradi.

Grammatik ko`nikmalar (Fe`l shakllari, sonlar, egalik olmoshlari):

“This is My Right Hand”

This is my right hand,

I'll raise it up high.

This is my left hand,

I'll touch the sky...

“She’r orqali ‘this is’, ‘my’ kabi grammatik konstruktsiyalar mustahkamlanadi. O`quvchilar “right/left” yo`nalishlarini o`rganish bilan birga, egalik olmoshlarini to`g`ri ishlatishni o`zlashtiradi.

Eshitish va tushunish (Listening and comprehension):

“Rain, Rain, Go Away”

Rain, rain, go away,

Come again another day,

Little Johnny wants to play.

Oddiy va takrorlanuvchi struktura bilan bu she’r bolalarda eshitib tushunish, tinglangan matnga javob qaytarish ko`nikmalarini rivojlantiradi. O`qituvchi savollar berib, o`quvchilardan javob so`rashi mumkin: “Why does Johnny want the rain to go away?”

Nutq faolligini oshirish (Speaking development):

Faoliyat:

O`qituvchi bolalarga she’rni takror aytib berishni taklif qiladi. So`ngra har bir bola o`z ismi bilan variant tuzadi:

“Rain, rain, go away,

Come again another day,

Little Ali wants to play.”

Bu faoliyat bolalarni faol gapirishga, o`z fikrini aytishga undaydi. Shaxsiylashtirish orqali motivatsiya kuchayadi.

O`yinlar Orqali Til Ko`nikmalarini Rivojlantirish.

O`yinlar o`quvchilarning til o`rganishga bo`lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, so`zlarni topish o`yinlari, rolli o`yinlar va interaktiv mashg`ulotlar orqali o`quvchilar yangi so`zlarni o`rganadilar, grammatik tuzilmalarni mustahkamlashadi va talaffuzlarini yaxshilaydilar.

She`rlar va O`yinlarning Birgalikdagi Foydasi

She`rlar va o`yinlarni birgalikda qo`llash o`quvchilarning til o`rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Masalan, she`r asosida rolli o`yin o`ynash orqali o`quvchilar so`zlarni kontekstda qo`llashni o`rganadilar, bu esa ularning til ko`nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa: She'rlar va o'yinlar birinchi sinf o'quvchilarining ingliz tilini o'rganish jarayonida muhim vositalardir. Ular o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, til ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi. O'qituvchilar ushbu metodlarni dars jarayoniga qo'shish orqali o'quvchilarning til o'rganishdagi muvaffaqiyatlarini oshirishlari mumkin. Ushbu metodlar orqali dasrlar o'tilsa til o'rganishga bo'lgan qiziqish, talab ortadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida do'stona muhit shaklanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Özen, B., & Mohammadzadeh, B. (n.d.). Teaching Vocabulary Through Poetry in an EFL Classroom. International Online Journal of Primary Education (IOJPE). Retrieved from <https://iojpe.org/index.php/iojpe/article/view/133>
2. Robertson, K. (n.d.). Teaching and Reading Poetry with English Language Learners. Colorín Colorado. Retrieved from <https://www.colorincolorado.org/article/introducing-and-reading-poetry-english-language-learners>
3. Smart, C. (n.d.). Using Poems to Develop Receptive Skills. British Council. Retrieved from <https://www.teachingenglish.org.uk/professional-development/teachers/knowning-subject/articles/using-poems-develop-receptive-skills>
4. Fresch, M. J., & Harrison, D. (2013). Playing With Poetry to Develop Phonemic Awareness. International Literacy Association. Retrieved from <https://www.literacyworldwide.org/get-resources/ila-e-ssentials/8033>
5. Radjabova, G. R. G. (2024). The Role of Poetry in Teaching Children a Foreign Language and Its Advantages in the Development of Pronunciation. PEDAGOGS, 48(2), 159–161. Retrieved from <https://pedagogs.uz/ped/article/view/642>
6. Valenzuela, M. (n.d.). Poetic Introductions / A Picture Game. British Council. Retrieved from <https://www.teachingenglish.org.uk/teaching-resources/teaching-secondary/activities/pre-intermediate-a2/poetic-introductions/picture>
7. (n.d.). Engage ELLs in Literacy-building with Poetry. Creative Educator. Retrieved from <https://www2.thecreativeeducator.com/2018/articles/engage-ELLs-in-literacy-building-with-poetry>

8. (n.d.). The Importance of Using Games in the English Classroom. Вестник КАСУ. Retrieved from <https://www.vestnik-kafu.info/journal/34/1402/>

9. (n.d.). Teaching Reading Skills through Poetry. Teachers Institute of Philadelphia. Retrieved from https://theteachersinstitute.org/curriculum_unit/teaching-reading-skills-through-poetry

10. (n.d.). Teaching English Through Poetry and Creative Writing. EFLCafe.net. Retrieved from <https://eflcafe.net/teaching-english-through-poetry-and-creative-writing/>

